



**BUXORO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**2024- yil yanvar-avgust oylari
uchun dastlabki ma'lumot**

BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(65) 223-75-63***



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Viloyatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, viloyatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 872,8 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 65,3 mln. AQSH dollariga yoki 8,1 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar - avgust , mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 872,8 +8,1 %

(2023- y.: 807,5)



Saldo

2024- y.: -374,8 (2023- y.: -381,7)



Eksport

2024- y.: 195,7 -0,3 %

(2023- y.: 196,3)

TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: 677,1 +10,8 %

(2023- y.: 611,2)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 195,7 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar – avgust oylariga nisbatan 0,3 % ga kamaydi) va import hajmi 677,1 mln. AQSH dollariga (10,8 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida - 481,3 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.




BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar - avgust, mln. AQSH dollari)

XXR TSA – 267,2 Eksport: 17,0 Import: 250,2  30,6 %	Rossiya TSA – 245,6 Eksport: 58,5 Import: 187,1  29,1 %	Turkmaniston TSA – 66,1 Eksport: 6,2 Import: 59,9  7,8 %	Eron TSA – 56,9 Eksport: 2,9 Import: 54,0  6,5 %	Afg‘oniston TSA – 47,6 Eksport: 47,2 Import: 0,4  5,5 %
Qozog‘iston TSA – 40,7 Eksport: 9,4 Import: 31,3  4,7 %	Turkiya TSA – 37,8 Eksport: 10,9 Import: 26,9  6,0 %	Germaniya TSA – 24,6 Eksport: 3,4 Import: 21,2  2,8 %	Qirg‘iziston TSA – 11,0 Eksport: 7,8 Import: 3,2  1,3 %	Hindiston TSA – 8,4 Eksport: 6,1 Import: 2,3  1,0 %

Buxoro viloyati jahonning 70 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (30,6 %), Rossiyada (29,1 %), Turkmanistonda (7,8 %), Eron (6,5 %) va Afg‘onistonda (5,5 %) qayd etilgan.




BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (2024- yil yanvar - avgust, mln. AQSH dollari)

Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
XXR		110,2	129,8	267,2
	<i>Eksport</i>	11,6	8,4	17,0
	<i>Import</i>	98,6	121,4	250,2
Rossiya		157,7	300,8	245,6
	<i>Eksport</i>	46,2	48,7	58,5
	<i>Import</i>	111,5	252,1	187,1
Turkmaniston		160,4	65,5	66,1
	<i>Eksport</i>	5,6	7,6	6,2
	<i>Import</i>	154,8	57,9	59,9
Eron		34,7	26,8	56,9
	<i>Eksport</i>	12,6	2,9	2,9
	<i>Import</i>	22,1	23,9	54,0
Afg'oniston		24,8	36,5	47,6
	<i>Eksport</i>	24,6	36,3	47,2
	<i>Import</i>	0,2	0,2	0,4
Qozog'iston		59,4	53,9	40,7
	<i>Eksport</i>	15,5	14,2	9,4
	<i>Import</i>	43,9	39,7	31,3
Turkiya		74,8	49,4	37,8
	<i>Eksport</i>	19,8	15,1	10,9
	<i>Import</i>	55,0	34,3	26,9
Germaniya		21,2	23,2	24,6
	<i>Eksport</i>	2,0	5,0	3,4
	<i>Import</i>	19,2	18,2	21,2
Qirg'iz Respublikasi		17,4	16,1	11,0
	<i>Eksport</i>	16,5	12,8	7,8
	<i>Import</i>	0,9	3,3	3,2
Hindiston		2,9	8,2	8,4
	<i>Eksport</i>	0,6	4,7	6,1
	<i>Import</i>	2,3	3,5	2,3

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Tojikiston	8,6	17,2	7,6
	<i>Eksport</i>	5,0	15,9	5,2
	<i>Import</i>	3,6	1,3	2,4
	Belarus	4,4	8,3	7,1
	<i>Eksport</i>	0,6	-	0,9
	<i>Import</i>	3,8	8,3	6,2
	AQSH	0,1	0,2	6,5
	<i>Eksport</i>	-	-	5,7
	<i>Import</i>	0,1	0,2	0,8
	Polsha	7,1	10,6	4,3
	<i>Eksport</i>	2,3	5,7	2,6
	<i>Import</i>	4,8	4,9	1,7
	Finlyandiya	0,7	0,1	4,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,7	0,1	4,2
	Koreya Respublikasi	3,4	6,0	4,0
	<i>Eksport</i>	0,3	0,4	0,5
	<i>Import</i>	3,1	5,6	3,5
	Litva	9,2	12,1	3,8
	<i>Eksport</i>	1,4	1,0	1,2
	<i>Import</i>	7,8	11,1	2,6
	Belgiya	0,3	0,4	3,8
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,3	0,4	3,8
	Pokiston	3,5	9,1	3,6
	<i>Eksport</i>	1,3	2,1	2,5
	<i>Import</i>	2,2	0,7	1,1
	Ozarbajjon	3,3	3,5	2,1
	<i>Eksport</i>	0,8	2,7	2,1
	<i>Import</i>	2,5	0,8	-



BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-avgust mln. AQSH doll.)*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor **47,6 %** ulush bilan **415,2** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shofirkon tumani **0,8 %** ulush bilan **7,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Buxoro viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-avgust oylarida 382,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 91,9 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 103,8 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



BUXORO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar- avgust, ulushi, % da)

Rossiya – 28,1



Tojikiston – 0,9



Turkmaniston – 7,6



Belarus – 0,8



Qozog'iston – 4,7



Ozarbajjon – 0,2



Qirg'iziston – 1,2




Ukraina – 0,2



Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (28,1 %), Turkmaniston (7,6 %) hamda Qozog'iston (4,7 %) davlatlari bilan qayd etildi.

BUXORO VILOYATINING YEOIIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yanvar - avgust, mln. AQSH dollari)



 Viloyatning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 304,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 76,6 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 227,8 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



BUXORO VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar - avgust)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 259 taga yetdi va ular tomonidan 195,7 mln. AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar - avgust ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



BUXORO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI

TARKIBI (2024- yil yanvar - avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	196,3	195,7	106,8	99,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16,4	13,9	68,0	84,8	2,7	7,1
Ichimliklar va tamaki	2,5	1,0	2,6 m.	39,2	-	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,4	12,0	40,1	162,9	2,9	6,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	43,4	42,8	146,1	98,6	47,9	21,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	3,0	-	-	-	1,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	6,5	3,8	111,8	58,5	10,3	1,9
Sanoat tovarlari	91,9	94,6	100,9	103,0	6,3	48,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	3,4	1,1	-	30,8	28,2	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	11,8	10,1	2,1 m.	85,5	1,7	5,1
Xizmatlar	13,0	13,5	179,6	103,8	-	6,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 93,1 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (48,3 %), turli xil tayyor buyumlar (5,1 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (21,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.




BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (2024-yil yanvar- avgust)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya Federasiyasi	48,7	58,5	105,4	120,1	1	1
Afg'oniston	36,3	47,2	147,6	130,0	2	2
XXR	8,4	17,0	72,4	2,0 m.	7	3
Turkiya	15,1	10,9	76,3	7,2 m .	4	4
Qozog'iston	14,2	9,4	91,6	66,2	5	5
Qirg'iziston	12,8	7,8	77,6	61,0	6	6
Turkmaniston	7,6	6,2	135,7	81,6	8	7
Hindiston	4,7	6,1	7,8 m.	129,8	11	8
AQSH	-	5,7	-	-	38	9
Tojikiston	15,9	5,2	3,2 m.	32,7	3	10
Germaniya	5,0	3,4	2,5 m.	68,0	10	11
Eron	2,9	2,9	23,0	100,0	12	12
Polsha	5,7	2,6	2,5 m.	4,6	9	13
Pokiston	2,1	2,5	161,5	119,0	15	14
Ozarbajjon	2,7	2,1	3,3 m.	77,8	13	15
Ukraina	2,7	1,6	81,8	96,3	14	16
Litva	1,0	1,2	71,4	20,0	20	17
Belarus	-	0,9	-	-	32	18
Koreya Respublikasi	0,4	0,5	133,3	125,0	22	19
Vetnam	1,9	0,4	100,0	21,0	17	20




BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI


(2024- yil yanvar - avgust, mln.AQSH doll.)*



Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



2023- y.

2024- y.

Viloyatda eksport tarkibida eng yuqori ulushni Buxoro shahri **31,9** foiz ulush bilan **62,4** mln. AQSh dollarni, eng quyi ulushni esa Jondor tumani **1,0** foiz bilan **1,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024 - yil yanvar – avgust oylarida 14,6 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 64,2 % ga yoki 26,1 ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (52,5 %) va Rossiya (12,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar- avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 8,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 31,8 % ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar - avgust, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum	Karam	Piyoz	Pomidor
0,3 mln. AQSH dollari	0,5 mln. AQSH dollari	0,7 mln. AQSH dollari	0,9 mln. AQSH dollari
0,2 ming tonna	1,5 ming tonna	4,7 ming tonna	1,0 ming tonna
 3,0 % ↓	 7,7 % ↓	 10,1 % ↓	 13,4 % ↓



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.


To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar - avgust oylari yakuni bo'yicha 9,2 mln. AQSH dollarilik, o'tgan yilga nisbatan 95,8 % ni tashkil etdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida trikotaj mato (14,1 %), tayyor to'qimachilik mahsulotlari (79,3 %) asosiy ulushni egallagan.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar - avgust, mln. AQSH dollari)





BUXORO VILOYATINING IMPORTI



2024- yil yanvar – avgust oylarida import hajmi **677,1** mln. AQSh dollarini va 2023- yilga nisbatan **110,8** foizni tashkil qildi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (**49,0** foiz) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**33,9** foiz) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar - avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar –avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,9 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 677,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



BUXORO VILOYATININGNING XSST BO‘YICHA IMPORTI **TARKIBI** (2024-yil yanvar - avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘sinh sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	611,2	677,1	107,8	110,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16,5	12,6	94,1	7,6	2,7	1,9
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,6	27,1	8,7 m	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	17,7	12,7	75,6	72,1	2,9	1,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	292,7	229,2	122,3	78,3	47,9	33,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,8	1,0	112,0	-	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	62,8	46,7	108,4	74,4	10,3	6,9
Sanoat tovarlari	38,3	33,7	80,6	88,0	6,3	5,0
Mashinalar va transport asbob uskunalari	172,2	331,7	105,0	192,6	28,2	49,0
Turli xil tayyor buyumlar	10,2	8,3	65,1	81,3	1,7	1,2
Xizmatlar	-	0,5	-	-	-	0,1




BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (2024-yil yanvar - avgust)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	121,4	187,1	123,1	154,1	2	1
Rossiya	252,1	250,2	2,3 m.	99,2	1	2
Turkmaniston	57,9	59,9	37,4	103,4	3	3
Eron	23,9	54,0	108,1	2,3 m.	6	4
Qozog'iston	39,7	31,3	90,4	78,8	4	5
Turkiya	34,3	26,9	62,4	78,4	5	6
Germaniya	19,2	21,2	100,0	110,4	7	7
Belarus	8,3	6,2	2,2 m.	74,7	9	8
Finlyandiya	0,1	4,1	14,3	4,1 m.	30	9
Belgiya	0,4	3,8	133,3	9,5 m.	32	10
Koreya Respublikasi	5,6	3,5	180,6	62,5	10	11
Qirg'iziston	3,3	3,1	3,7 m.	93,3	14	12
Litva	11,1	2,6	142,3	23,4	8	13
Tojikiston	1,3	2,4	36,1	184,6	20	14
Hindiston	3,5	2,3	152,2	65,7	13	15
Buyuk Britaniya	0,7	2,0	-	2,8 m.	28	16
Polsha	4,9	1,7	102,1	34,7	11	17
Italiya	1,1	1,6	25,0	145,4	21	18
B.A.A	1,4	1,5	2,8 m.	107,1	19	19
Pokiston	0,7	1,1	31,8	157,1	27	20




BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI


(2024 -yil yanvar - avgust, mln. AQSH doll.)



Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



2023- y.

2024- y.

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor tumani **56,4** foiz ulush bilan **381,8** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Shofirkon tumani **0,4** % ulush bilan **2,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.